

"O'zkimyosanoat" AJ Komplayens xizmatining 2022-yil yakunlari yuzasidan hisobot yig'ilishi o'tkazildi

// 03.02.2023

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/komplayens-xizmatining-2022-yil-yakunlari-yuzasidan-hisobot>



"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari Komplayens xizmati tomonidan 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisi v.v.b. Y. Korjikov yig'ilish ishtirokchilarini kun tartibidagi masala bilan tanishtirib, Komplayens xizmati tomonidan 2022-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan quyidagilarni ma'lum qildi.

"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish, sohada preventiv choralarni kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Jamiyatning 2023-yil uchun "Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi" tasdiqlanib, sohada korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish yuzasidan aniq, tizimli chora-tadbirlar belgilab olindi.

Shuningdek, barcha tarmoq korxonalarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati", "Odob-axloq qoidalari", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish nizomi", "Nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma", "Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma" va "Xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyati" kabi 10

dan ortiq ichki idoraviy hujjatlar qabul qilinib, mazkur hujjatlardagi tartib-taomillar bilan xodimlarni tanishtirish va amaliyotga joriy etish yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2022-yil davomida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish nizomi" talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori bo'lgan 6250 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirildi. Tahlillar natijasiga ko'ra **57 nafar** mas'ul xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi, **37 ta** holatda esa ehtimoliy (potensial) manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi aniqlangan. Mazkur holatlar bo'yicha aniqlangan manfaatlar to'qnashuvlarini zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'rildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida kimyo sanoati korxonalarida korxonalar va davlat mulklarini o'zlashtirish va korrupsion jinoyatlar bo'yicha jami **65 ta** xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan. Xizmat tekshiruvlari natijalariga ko'ra to'plangan hujjatlar tegishli tartibda huquq-tartibot idoralariga yuborilib, oqibatda **28 nafar** xodim jinoiy javobgarlikka tortilgan, **25 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod etilgan, **100 nafar** mas'ul xodimlarga turli intizomiy jazolar qo'llanilgan.

Yana bir ahamiyatli jihati shundaki, 2021-yil davomida tarmoq korxonalarining tovar-moddiy boyliklari hamda vakolatli ijara omborlarida jami bo'lib **85,5 mlrd so'mlik** turli tovar-moddiy boyliklari va mineral o'g'itlar kamomadi aniqlangan bo'lsa, Komplayens xizmatlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar va muntazam o'tkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida 2022-yil mobaynida vakolatli ijara omborlarida kamomadlar aniqlanmagan.

2022-yilda "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsion harakatlar, korxonalar mablag'larining talon-taroj qilinishi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga qo'shib yozishlar oqibatida tizimga jami **28,3 mlrd so'mlik** zarar yetkazilganligi aniqlanib, tergov harakatlarini olib borayotgan idoralar bilan hamkorlikda yetkazilgan zararni qoplash yuzasidan tegishli choralar ko'rilmogda.

Shu bilan birga, hisobot davrida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlar "Xaridlar siyosati" va "Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma" talablariga rioya etilishini ta'minlash natijasida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash orqali jami **7,5 mlrd so'mlik** pul mablag'larining asossiz sarflanishining oldi olingan.

Hisobot yig'ilishi davomida jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasidagi ishlarni muntazam va tizimli davom ettirish yuzasidan ko'rsatma va topshiriqlar berildi. Shuningdek, "O'zkimyosanoat" Ajda tasdiqlangan sohaga oid ichki idoraviy hujjatlar ijrosi hamda 2023-yilda "Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi" da belgilangan chora-tadbirlar ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlash hamda amalga oshirish, huquqbuzarliklarni erta aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, qolaversa, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Komplayens xizmati tomonidan mazkur sohada ustuvor yo'nalishlar, aniq maqsadlar va vazifalar belgilab olindi.









“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati